

UMUMIY MEROS: MILLATLAR VA MADANIYATLAR MUSHTARAKLIG'I

O'zbekiston Amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi

ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Zuhra Xolikova

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2026-yil aprel oyida Toshkentdagi O'zbekiston Amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida birinchi marta o'tkazilgan "Naqshlar tili – umumiy meros sadosi" mavzusidagi xalqaro madaniy-ma'rifiy tadbirning tashkiliy-mazmuniy xususiyatlari, uning ilmiy va amaliy ahamiyati tahlil etildi. Ushbu tadbirda O'zbekiston va Ozarbayjon hunarmandlari ishtirokida "Bezaklarda kodlashgan madaniyat" nomli ilmiy-amaliy konferentsiya, noyob hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi hamda milliy naqsh san'ati bo'yicha 12 dan ortiq maharat darslari o'tkazildi. Tadbirda jami 80 dan ortiq ishtirokchi qatnashib, ikkala davlatdan kelgan 20 nafardan ziyod usta hunarmand o'z ijodiy ishlarini namoyish etdi. Maqolada O'zbekiston–Ozarbayjon madaniy hamkorligining so'nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi, 2024-yilda Bokuda o'tkazilgan "Choklardagi meros" ko'rgazmasining natijalari va 2026-yildagi tadbir o'rtasidagi uzviylik ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro madaniy hamkorlik, nomaddiy madaniy meros, hunarmandchilik an'analari, naqsh san'ati, O'zbekiston–Ozarbayjon munosabatlari, muzey faoliyati, madaniyatlararo muloqot, umumiy tarixiy meros, maharat darslari, oramentlar simbolizmi.

Abstract. This article analyzes the organizational and content features of the international cultural and educational event "The Language of Patterns - the Echo of a Common Heritage", held for the first time in April 2026 at the State Museum of the History of Applied Arts and Crafts of Uzbekistan in Tashkent, as well as its scientific and practical significance. This event included a scientific and practical conference "Culture Coded in Decorations", an exhibition of unique handicraft products, and more than 12 master classes in national pattern art with the participation of craftsmen from Uzbekistan and Azerbaijan. A total of more than 80 participants took part in the event, and more than 20 master craftsmen from both countries demonstrated their creative works. The article also examines the dynamics of the development of Uzbek-Azerbaijani cultural cooperation in recent years, the results of the "Heritage in Stitches" exhibition held in Baku in 2024, and the continuity between the event in 2026.

Keywords: international cultural cooperation, intangible cultural heritage, craft traditions, decorative arts, Uzbek-Azerbaijani relations, museum activities, intercultural dialogue, common historical heritage, master classes, symbolism of ornaments.

KIRISH

Globalashuv davrida madaniy xilma-xillikni asrab-avaylash, milliy meros va hunarmandchilik an'analari orqali xalqlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni mustahkamlash zamonaviy madaniy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro ekspertlar ta'kidlaganidek, nomoddiy madaniy meros – til, urf-odat, an'ana va hunarmandchilik ko'nikmalari – xalqlarni bir-biriga bog'laydigan eng mustahkam ko'prikdir [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni va 2019-yil 28-noyabrdagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4516-son Qarori asosida milliy hunarmandchilikni xalqaro miqyosda targ'ib etish, madaniy diplomatiyani kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda [2].

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy hamkorlik 2017-yilda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ikkala davlat ham yaqin tarixiy, til va madaniy ildizlarga ega. Ikkala xalq ham Ipak yo'li sivilizatsiyasi merosxo'ri sifatida naqsh san'ati, to'qimachilik va zargarlik kabi hunarmandchilik turlarida yuksak mahorat namunalarini yaratadilar [3]. Ushbu hamkorlikni yangi bosqichga ko'yarishda 2026-yil aprelida Toshkentda o'tkazilgan "Naqshlar tili – umumiy meros sadosi" madaniy-ma'rifiy tadbirining o'rni beqiyosdir.

Ushbu maqolaning maqsadi – mazkur tadbirning ilmiy-amaliy ahamiyatini baholash, ikkala xalq hunarmandchilik an'analari o'rtasidagi tipologik yaqinlikni ko'rsatish hamda bunday xalqaro madaniy almashinuvlarning kelajak uchun ahamiyatini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: kuzatish (ishtirokchi sifatida tadbir jarayonini qayd etish), tavsifiy tahlil (konferentsiya materiallari va ko'rgazma eksponatlarini o'rganish), qiyosiy tahlil (o'zbek va Ozarbayjon naqsh an'analari o'rtasidagi mushtaraklik va farqlarni aniqlash) hamda hujjatli tahlil (rasmiiy hisobotlar, dastur va sertifikatlarni ko'rib chiqish).

Tadbirning asosiy tashkilotchilari: O'zbekiston Amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi (direktor Ismat Yusupov Iskandarovich), Ozarbayjon Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyati markazi (direktor Akif Marifli) va Respublika "Hunarmand" uyushmasi. Tadbir 2026-yil 14–20 aprel kunlari, ya'ni taxminan bir hafta davom etdi.

Shuningdek, konferensiyada ma'ruzasi bilan ishtirok etgan muzeyning ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari o'z nutqida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, milliy hunarmandchilik an'analari asrab-avaylash va targ'ib etish masalalariga alohida urg'u berib, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda ikki davlat hunarmandlari o'rtasida tajriba almashinuvini kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tdi.



Mazkur konferensiyada O'zbekiston va Ozarbayjon hunarmandlari o'z taqdimotlari bilan faol ishtirok etib, an'anaviy bezak san'ati, uning ramziy uyg'unligi hamda zamonaviy talqinlari yuzasidan o'zaro tajriba almashdilar.



Ushbu tadbir ikki xalqning umumiy tarixiy merosi va san'atdagi mushtaraklikni yanada yaqinlashtiradi. Shuningdek, bunday tadbirlar madaniy merosni asrab-avaylash, uni keng targ'ib etish hamda do'st davlatlar o'rtasidagi madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, bu tadbir O'zbekiston poytaxtining madaniy hayotida katta voqea kasb etganligi tufayli ochilishiga O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan bir qancha xalqaro tashkilotlarning, elchixonalar va vakolatxonalar, ommaviy axborot vositalarining vakillari, kulolchilik va amaliy san'atning boshqa turlari bo'yicha mutaxassislar, san'at ixlosmandlari, mahalliy aholi va mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar hamda ayniqsa oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan ko'pgina yoshlar tashrif buyurishdi.

Yuksak saviyada tashkil etilgan mazkur madaniy-ma'rifiy tadbir Ozarbayjon va O'zbekiston hunarmandlari ishtirokida mahorat darslari, ko'rgazma va konferensiyalarni o'z ichiga qamrab olib, bu ikki davlat hunarmandlari o'rtasida hunarmandchilik yo'nalishi bo'yicha o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish hamda mamlakatlar bilan madaniyatlar va san'atlar mushtarakligini ifoda etuvchi bir vositadir. Mazkur tadbir milliy hunarmandchilik an'alarini keng ommaga targ'ib etish, Ozarbayjon va O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash, shuningdek, naqsh san'ati orqali umumiy tarixiy merosni yoritishga qaratilgan.

Tadbir uch asosiy qismdan iborat bo'lib o'tdi: (1) "Bezaklarda kodlashgan madaniyat" nomli ilmiy-amaliy konferentsiya, (2) O'zbekiston va Ozarbayjon milliy naqshlari bo'yicha mahorat darslari silsilasi, (3) hunarmandchilik mahsulotlari va san'at asarlari ko'rgazmasi. Manbalar asosida ushbu tadbir uchun O'zbekiston tomonidan 25 nafar ustakori hunarmand, Ozarbayjon tomonidan esa 15 nafar usta jalb etilgan.

Shuningdek, 2024-yil mart-iyul oylarida Boku shahridagi Heydar Aliyev madaniyat markazida o'tkazilgan "Choklardagi meros: O'zbekistonning kashtachilik va tikuvchilik an'analari bo'ylab sayohat" nomli ko'rgazma natijalari ham qiyosiy manbai sifatida foydalanildi. Mazkur ko'rgazmada muzey zahirasida saqlanayotgan paranji, chachvon, mursak, ayollar xalati va do'ppilar kabi 61 ta noyob eksponat Ozarbayjon xalqi va ko'rgazma ishtirokchilari uchun namoyishga qo'yildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadbirning tashkiliy ko'rsatkichlari

"Naqshlar tili – umumiy meros sadosi" tadbirini rasmiy ravishda muzey direktori Ismat Yusupov va Ozarbayjon madaniyati markazi direktori Akif Marifli ochib berdi.



Tadbirda ishtirok etgan mehmonlar va ishtirokchilarning umumiy soni 80 nafardan oshdi. Quyidagilar tadbirda vakil bo'lib ishtirok etdi:

- O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 7 ta xalqaro tashkilot vakillari;
- 12 ta mamlakatning elchixona va vakolatxonalar vakillari;
- OAV (ommaviy axborot vositalari) vakillari – mahalliy va xorijiy tahririyatlardan 15 dan ortiq jurnalist;
- kulolchilik, to'qimachilik va amaliy san'atning boshqa turlari bo'yicha mutaxassislar;
- oliy o'quv yurtlarining talabalari, san'at ixlosmandlari va xorijiy sayyohlar.

O'zbekiston muzey ashyolari va kolleksiyalarini o'z ichiga olgan mazkur xalqaro ko'rgazmada O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi ham bevosita ishtirok etdi. Ushbu xalqaro ko'rgazma ekspozitsiyasida Muzey zahirasida saqlanayotgan paranji, chachvon, mursak, ayollar xalati va do'ppilar kabi xalq amaliy san'ati namunalari o'z ichiga olgan jami 61 ta ashyo Ozarbayjon xalqi va ko'rgazma ishtirokchilari hamda martabali mehmonlar uchun namoyishga qo'yildi. Bu esa o'z o'rnida ularga ushbu noyob durdonalarni aslini, ya'ni yaqindan turib ko'rish imkoniyatini yaratdi.

Ilmiy-amaliy konferentsiya



"Bezaklarda kodlangan madaniyat" nomli ilmiy-amaliy konferentsiyada O'zbekiston va Ozarbayjon olimlari, hunarmandchilik mutaxassislari va muzey xodimlari ishtirok etib, 8 ta ilmiy ma'ruza taqdim etdi. Ma'ruzalarda quyidagi mavzular ko'rib chiqildi:

- O'zbek va Ozarbayjon milliy naqshlaridagi umumiy geometrik motivlar (sakkizburchak, girix, islmiy o'simlik naqshlari);
- Naqshlarning ramziy ma'nolari: quyosh, hayot daraxti, **nar** va pomidor kabi motivlarning ikkala madaniyatdagi talqini;

– Zamonaviy o‘zbek kashtachiligi va Ozarbayjon Qarabog‘ gilamlari: an‘anaviy texnikani bugungi kun talablariga moslash;

– UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan nomoddiy meros ob‘yektlari: O‘zbekiston va Ozarbayjonning xalqaro maydondagi tajribasi.

Muzeyning ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘z ma‘ruzasida mamlakatimizda madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, milliy hunarmandchilik an‘analarini asrab-avaylash va targ‘ib etish masalalariga alohida urg‘u berib, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda ikki davlat hunarmandlari o‘rtasida tajriba almashishni kengaytirish dolzarb vazifalardan ekanligi ta‘kidlandi.

Ko‘rgazma va mahorat darslari

Tadbir doirasida Ozarbayjondan tashrif buyurgan hunarmandlar va o‘zbek ustalari ishtirokida 12 dan ortiq mahorat darsi o‘tkazildi. Bu darslarda asosiy e‘zgu milliy bezak san‘atining quyidagi turlari o‘rganildi: zardo‘zlik, kashtachilik, kulolchilik naqshlari, metall o‘ymakorligi va gilam to‘qish. Ozarbayjonliklar o‘z navbatida Shusha va Qarabog‘ mintaqasiga xos gilamchilik uslubi, Xari Bulbul motivi hamda an‘anaviy Ozarbayjon kumush zargarlik naqshlarini namoyish etdi.

Ko‘rgazmada O‘zbekiston va Ozarbayjonning zamonaviy hamda an‘anaviy hunarmandchilik namunalari birgalikda taqdim etildi. O‘zbekiston tomonidan Farg‘ona vodiysi kashtachilik an‘anasiga xos zardo‘zlik asarlari, Buxoro zargarlik buyumlari, Rishton va Gijduvon kulolchiligi mahsulotlari namoyish etildi. Ozarbayjon tomonidan esa Qarabog‘ gilamlari, Sheki ipakchiligi va Lahij mis o‘ymakorlik namunalari keng e‘tiborga taqdim qilindi.

3.4. 2024-yil Boku ko‘rgazmasi bilan uzviylik

2026-yilgi tadbirning ahamiyatini to‘liqroq anglash uchun 2024-yilda Bokuda o‘tkazilgan hamkorlik tadbirini esga olish lozim. 2024-yil mart–iyul oylarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi tashabbusi bilan Boku shahridagi Heydar Aliyev madaniyat markazida "Choklardagi meros: O‘zbekistonning kashtachilik va tikuvchilik an‘analari bo‘ylab sayohat" nomli ko‘rgazma ochildi.

Ushbu xalqaro ko‘rgazmada O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi bevosita ishtirok etib, muzey zahirasida saqlanayotgan paranji, chachvon, mursak, ayollar xalati va do‘ppilar kabi xalq amaliy san‘ati namunalarini o‘z ichiga olgan jami 61 ta ashyoni Ozarbayjon xalqi va ko‘rgazma ishtirokchilari hamda martabali mehmonlar uchun namoyishga qo‘ydi. Ushbu ko‘rgazma ikkala davlat o‘rtasidagi madaniy almashinuvning poydevorini yaratib, 2026-yilgi Toshkent tadbirining zaminini yaratdi.

MUHOKAMA

Tadbir natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek va Ozarbayjon naqsh san‘ati o‘rtasida chuqur tipologik yaqinlik mavjud. Bu yaqinlik tasodifiy emas – ikkala madaniyat ham qadimgi Ipak yo‘li sivilizatsiyasining integral qismi bo‘lib, ming yillar davomida savdo va madaniy almashinuv orqali bir-birini boyitib kelgan [4]. Xususan, girix (geometrik naqsh) motivi, islmiy o‘simlik naqshlari va hayot daraxti ramzi ikkala xalqning hunarmandchilik an‘anasida markaziy o‘rin egallaydi.

Ayni paytda, farqlar ham mavjud bo‘lib, ular ikkala madaniyatning o‘ziga xos tarixiy yo‘li va geografik sharoitidan kelib chiqadi. Ozarbayjon naqshlarida, xususan Qarabog‘ gilamchilik maktabida, Xari Bulbul ("mayib bulbul") motivi alohida ramziy ahamiyat kasb etadi va bu 2020-yil Qarabog‘ zafari bilan yangi ma‘no kasb etdi. O‘zbekistonda esa Farg‘ona kashtachiligi va Buxoro

zargarligida o'ziga xos geometrik va o'simlik naqshlari rivojlangan. Mazkur farqlar madaniyatlararo muloqotni yanada boyroq va qiziqarliroq qiladi.

Shunday qilib, Ozarbayjon Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyati markazi hamda "Hunarmand" uyushmasi o'rtasida madaniy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ushbu hamkorlik Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yirik madaniy loyihalardan biridir. Bunday tadbirlar madaniy merosni asrab-avaylash, uni keng targ'ib etish hamda do'st davlatlar o'rtasidagi madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadbirning tarbiyaviy ahamiyati ham e'tiborga molik. Ayniqsa bugungi o'sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, urf-odat va an'analarimizga iftixor, vatanparvarlik va do'stlik tuyg'ularini tarbiyalashda bunday xalqaro tadbirlar beqiyos ahamiyat kasb etadi. Oliy o'quv yurtlari talabalarining keng qatlamda tadbirga jalb etilganligi bu maqsadga muvofiq ravishda rejalashtirilgan ekanini ko'rsatadi.

XULOSA

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida bo'lib o'tgan "Naqshlar tili – umumiy meros sadosi" madaniy-ma'rifiy tadbiri o'zbek-Ozarbayjon madaniy hamkorligining yangi bosqichini belgiladi va quyidagi xulosalarga asos bo'ldi:

1. Tadbir ikkala xalqning naqsh san'atida chuqur tipologik mushtaraklikning mavjudligini amaliy jihatdan isbotladi.
2. Konferentsiya va maharat darslari hunarmandchilik sohasida ilmiy-amaliy bilim almashinuvining samarali mexanizmi bo'lib xizmat qildi.
3. Mazkur tadbir 2024-yilgi Boku ko'rgazmasi bilan organik bog'lik bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi uzluksiz madaniy muloqotning ifodasi sifatida baholanadi.
4. Bunday xalqaro madaniy tadbirlar nafaqat poytaxtliklarni, balki jahon xalqlarini ham milliy hunarmandchilik orqali tinchlik, do'stlik va o'zaro hamjihatlikka da'vat etuvchi muhim diplomatik vosita sifatida tan olinishi zarur.

Kelajakda O'zbekiston va Ozarbayjon hunarmandlari o'rtasida amaliy san'atning kulolchilik, kandakorlik, zargarlik kabi boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ushbu tajribani O'zbekiston sheriklari bo'lgan boshqa mamlakatlarga ham kengaytirish, muzeylar o'rtasida doimiy madaniy almashinuv dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO, 2003. 14 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4516-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2019. №48.
3. Ismoilov A. O'zbek va Ozarbayjon xalqlari madaniy aloqalarining tarixiy ildizlari // O'zbekiston tarixi. Toshkent: Fan, 2021. №4. B. 45–58.
4. Karimova R. O'zbek xalq naqshlari va ularning ramziy ma'nosi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. 210 b.
5. Musayeva L. Azerbaijani Carpet Art: Karabakh School and Its Symbolism. Baku: Elm, 2022. 185 p.

6. O‘zbekiston Amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi. "Choklardagi meros" ko‘rgazmasi hisoboti. Toshkent, 2024.

